

HARBIY XIZMATCHILARNING MEHNAT FAOLIYATIDA XAVFSIZ INTEGRATSION ISHLASH USULLARINING NAZARIY ASOSLARI

Baxridinov Sherzodbek Nurmamatovich

Farg'ona Politehnika Instituti, mustaqil izlanuvchi

E-mail: sherzodbek.baxridinov83.83@mail.ru [Telefon: \(97\)293-42-44](tel:(97)293-42-44)

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyati, mehnatni muhofaza qilish masalalari va xavfsiz integratsion ishlash usullari yoritiladi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyatida xavfsiz integratsion ishlash usullarini takomillashtirish tizimi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Qonunchilik hujjatlari, mehnat faoliyati, integratsion ishlash usullari, ish qobiliyati, texnologik jarayonlar, mehnat mezonlari, mehnat xavfsizligini boshqarish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7- noyabr 1994-yildagi 538-sonli qaroriga asosan korxonalarda mehnatni muhofaza qilish davlat boshqaruviga o'tkazildi va bu masalada bosh mutasaddi qilib Mehnat vazirligi tayinlandi. Keyinchalik Vazirlar Mahkamasining 16-fevral 1995-yildagi 58-son qarori bilan Mehnat vazirligi qoshida «Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi» tuzildi. Bu boshqarmaning vazifasi respublikamizdagi korxonalar va muassasalarda mehnat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkiliy va texnikaviy muammolarni o'z vaqtida yechilishini nazorat qilish hamda xavfsizlik mezonlarini muhokama etish va tasdiqlash jarayonida ishtirok etishdan iboratdir. Shu normativ qonun asosida harbiy xizmatchilarning mehnat xavfsizligi to'g'risidagi ichki nizom tuziladi.

Harbiy xizmatchilarni [mehnatini muhofaza qilish](#) - mehnat jarayonida harbiy xizmatchilarning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari va vositalari tizimidir. Ish jarayoni xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlarini ta'minlashi shart.

Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar [Mehnat Kodeksida](#), boshqa qonunchilik hujjatlarida, shuningdek mehnatni muhofaza qilish masalalariga oid texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilanadi. Harbiy xizmatchilarning mehnatini muhofaza qilishga doir talablar mehnat faoliyati jarayonida xodimning hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan qoidalarni, tartib-taomillarni va mezonlarni aynan shu Mehnat Kodeksiga ko'ra belgilaydi.

Harbiy xizmatchilarning mehnatini muhofaza qilishga doir talablar obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish), ulardan foydalanish, mashinalarni, mexanizmlarni va boshqa jihozlarni konstruktsiya qilish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish, shuningdek o'zga turdagi faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart. Harbiy xizmatchilarning shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari mehnatni muhofaza qilishga doir talablarga mos kelishi hamda muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi shart.

Harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyatida xavfsiz integratsion usullar sodir bo'ladigan turli shakldagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalanih yo'llarini o'rganishga qaratilgandir. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar asosida rivojlanib, takomillashib boradi. Harbiy xizmatchilarning mehnat xavfsizligini ta'minlashda ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan nizomlar, standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik me'yorlar hamda ularni o'rganish bo'yicha uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Harbiy xizmatchilarning mehnatini muhofaza qilishning asosiy maqsadi hodimning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli faktorlar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari, mehnat xavfsizligini ta'minlash hamda xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish bo'yicha nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir. Yuqoridagilarga mos holda harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyatini o'rganish davomida quyidagilarni nazariy jihatdan o'zlashtirishlari lozim:

- harbiy xizmatchilarning mehnat xavfsizligining nazariy asoslari. Ergonomika va mehnat xavfsizligi psixologiyasi haqida tushuncha;
- harbiy xizmatchilarning mehnat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy tamoyillar, uslublar va vositalar tizimi;
- harbiy xizmatchilarning mehnat xavfsizligini boshqarish asoslari;
- harbiy xizmatchilarning mehnat xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari.

Harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyatini muhofaza qilish bo'yicha qonunlar, standartlar tizimi, nizomlar, ko'rsatmalar, ishlab chiqarish sanitariyasi me'yorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar:

- ishlab chiqarishda harbiy xizmatchilarning mehnat xavfsizligini ta'minlash, sog'lom va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo'yicha rejali tadbirlar mazmuni, uni ishlab chiqish tartibi;
- harbiy xizmatchilarning baxtsiz hodisalarni tahlil qilish, ularni tekshirish va hujjatlashtirish tartiblari;
- harbiy xizmatchilarning mehnat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish, baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash uslublarini o'rganish;

- xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan shaxsiy himoya vositalari bilan harbiy xizmatchilarni ta'minlash tartibi va ulardan foydalanish yo'llari;
- sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish bo'yicha sanitar-gigiyenik tadbirlar;
- harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyatida texnika vositalaridan, mashina-mexanizmlar, qurilmalar va moslamalardan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari;
- harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyatida yong'in xavfsizligi. Yong'inning kelib chiqish sabablari, uning oldini olish, yong'inni o'chirish texnika vositalari va usullari;
- jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi va qoidalari.

Yuqorida qayd etilgan nazariy bilimlarga asoslangan holda har bir harbiy xizmatchilar mehnat faoliyatida xavfsiz integratsion usullarni takomillashtirishni o'rganish bilan quyidagilarni amalda uddalashlari lozim:

- harbiy xizmatchilar mehnat faoliyatida xavfli va zararli ishlab chiqarish jarayonlarini baholash;
- mehnat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maqbul variantlarni tanlashda mustaqil qarorlar qabul qilish;
- xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar («instruktaj») bilan tanishish va ularni hujjatlashtirish tartiblarini bilish;
- malakali ravishda baxtsiz hodisalarni tekshirish va ularning sabablarini aniqlash;
- harbiy xizmatchilar mehnat faoliyati bo'yicha ko'rsatmalar («instruksiya»)ni mustaqil tahlil qilish va o'rganish;
- harbiy xizmatchilarning ishlab chiqarish xonalari va ish joylarining sanitar-gigiyenik holatini belgilovchi ko'rsatkichlarni (gazlanganlik va changlanganlik darajasi, shovqin va titrash, yoritilganlik, xona havosining harorati, nisbiy namligi, harakatlanish tezligi, bosimi va b.) aniqlovchi asbob-uskunalar va jihozlardan foydalana bilish;
- yong'in chiqqanda o't o'chirgichlar va o't o'chirish texnikalarini ishlata bilish;
- jarohatlangan yoki shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

Harbiy xizmatchilarning mehnat faoliyatida xavfsiz integratsion usullarni takomillashtirish tizimining birdan bir maqsadi, mehnat muhofazasi qonun-qoidalariga harbiy xizmatchilarning e'tiborini oshirish, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini yaratishni yagona, to'g'ri yechimini aniqlash hamda uni ishlab chiqarishda tatbiq etishga tavsiya qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Toshkent, 1996-y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1993-y.

3. Гасанов М, Соколов Е. Трудовое законодательство Узбекистана (в вопросах и ответах). Издательский дом «Мир экономики и права», Ташкент, 2018 г.
4. Безопасность жизнедеятельности. (Под редакцией О.Н.Русака, краткий конспект лекций для студентов всех специальностей.- М, 2001 г.
5. Хефлин Г. Тревогого чрезвычайного случаи 2000 году. М., Мсл, 1990 г,
6. Хенли Д., Кумамото Х. Надежность технических системы оценка риска. М., Машиностроение, 1984 г.
7. Основы инженерной психологии. Под ред. В.Ф.Ломова М., «Высшая школа», 1986 г.
8. Котик М.А. Психология и безопасность. Таллин, 2001 г.